

OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA NUTQ MADANIYATI**Asqarova Mashhura Akmal qizi**

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti Gumanitar fanlar fakulteti O’zbek tili va adabiyot yo’nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Maqolada OAV¹ va unda qo’llanilishi lozim bo’lgan nutq turlari, strukturasi va nutq madaniyatining umumiy kategoriyalari haqida ma’lumot berilgan va ba’zi tadqiqot natijalari tahliliga binoan xulosa va takliflar keltirilgan.

Kalit so’zlar: madaniyat, nutq, ommaviy axborot vositalari, nutq turlari, nutq madaniyati, noadabiy qatlam, dialektizm, vulgarizm, varvarizm, virtual muloqot, metaforizatsiya, maksimal ma’lumot,hissiy yuk.

KIRISH

Jahon madaniyatiga buyuk hissa qo’shgan mutafakkirlarning barchasi ham ta’lim va tarbiya borasida fikr yuritar ekanlar, bu jarayonda ona tilining o’rni beqiyos ekanligini qayd etadilar².

Mustaqillik tomon qo’ylgan ilk qadam va ilk g’alabalardan biri ham bu o’zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi bo’lgan edi. O’zbek tili davlatimizning bayrog‘i, gerbi, madhiyasi, Konstitutsiyasi qatorida qonun bilan himoya qilinadigan muqaddas timsollaridandir.

XX-XXI asr tilshunosligida til falsafasining eng yetuk namoyandalaridan hisoblangan Vaysberger va uning izdoshlari tomonidan ona tili fenomenining inson tafakkuri va hayotiy tamoyillari shakllanuvudagi o’rni borasida g’oyatda qiziqarli tadqiqotlar olib borildi va borilmoqdaki, bu alohida yirik mubohasa uchun mavzu bo’la oladi.

Tilshunoslikning jahonda barq urib rivojlanayotgan bir qator jabhalari borki, ularning o’zbek tiliga tatbiq qilinishi o’zbek tilshunosligining nafaqat ijtimoiy, balki iqtisodiy samaradorligini ham yuksaltirishi shubhasiz.

O’zbek nazariy tilshunosligi juda katta yutuqlarni qo’lga kiritdi. Biroq ommaviy savodxonlik va muloqot madaniyatining shakllanishida bu natijalardan foydalanimayapti. Shu o’rinda ta’kidlab o’tish lozimki, ommaviy savodxonlik(transsavodxonlik) jahon hamjamiyati diqqatini tortib kelmoqda. YUNESKO-Savodlilik-ozodlik (Literacy as Freedom) shiorini o’rtaga tashlagani ham fikrimiz dalilidir.

An’anaviy va struktur tilshunoslik doirasida so’zlashuv nutqi yuzasidan qator tadqiqot ishlari olib borilgan³. Ilmiy manbalarda so’zlashuv nutqi, ko’pincha, adabiy so’zlashuv nutqi va oddiy so’zlashuv nutqi turlariga ajratiladi. Suyun Karimov so’zlashuv nutqini uch tipga ajratadi: adabiy so’zlashuv, muomala-maishiy, oddiy nutq⁴.

¹ OAV- Ommaviy acborot vositalari.

² Sh. Shaxabitdinova, D. Rustamov, D. Popov, D. Rustamova, B. Abdullaev, Sh.Miralimova “Ommaviy lisoniy madaniyat [Jamoaviy monografiya]. Andijon –2020 5-b

³ Urinbaev B. Voprosy sintaksisa uzbekskoy razgovornoy rechi. Avtoref. diss... d-ra filol.nauk. – T., 1974.; O’rinbaev B. O’zbek so’zlashuv nutki sintaksisi masalalari. –T.: Fan, 1974.

⁴ Karimov S. O’zbek tili funksional sgistikasi. Monografiya. – Samarqand: SamDU, 2010. – B. 32

Ushbu tasniflarni umumlashtirgan holda hamda kuzatuvlarimiz asosida so‘zlashuv nutqining quyidagi turlari mavjud deb hisoblaymiz:

- 1) adabiy so‘zlashuv;
- 2) qorishiq so‘zlashuv;
- 3) oddiy so‘zlashuv yoki ko‘cha tili
- 4) dialektal so‘zlashuv.

Adabiy so‘zlashuv nutqi rasmiy doiralarda, ta’lim muassasalarida, ommaviy axborot vositalarida ijtimoiy aloqa-aratashuv vositasi sifatida xizmat qiladi. Ma’lum bir toifa so‘zlovchilar rasmiy doiralarda, OAVdagi chiqishlarida, ma’ruza yoki nutq so‘zlash jarayonlarida adabiy til me’yorlariga rioya qiladilar:

“Assalomu alaykum hurmatli do‘srlar! Tug‘ilgan kunim munosabati bilan bildirgan samimiy tilaklarizingiz uchun barchangizdan minnatdorman. E’tiboringizdan boshimiz ko‘kka yetdi. Imkon qadar javob qaytarishga harakat qildim. Javob berolmagan bo‘lsam uzr, o‘qimabdi, degan xayollarga bormang. Hammangizga sog‘liq, xotirjamlik va davlatmandlik tilayman. Baxt aslo tark etmasin⁵!

Shunisi e’tiborliki, og‘zaki so‘zlashuv nutqiga xos bo‘lgan ana shu tafovutlar uning yozma shaklida ham amal qila boshladi. Xuddi mana shu to‘rt toifa xususiyatlarni internet tarmoqlari foydalanuvchilar yozishmalarida ham kuzatishimiz mumkin. Xususan, oddiy yozma so‘zlashuv nutqida adabiy til me’yorlariga amal qilinmaydi, fonetik, leksik, grammatic nomuvofiqliklar me’yor hisoblanadi, noadabiy qatlamga oid dialektizm, vulgarizm, varvarizm kabi lug‘aviy birliklardan foydalaniladi. Xususan, ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilarining aksariyati (rasmiy va ommaviy axborot saytlaridagi matnlar bundan mustasno) til birliklaridan oddiy so‘zlashuvda qanday foydalansalar, virtual muloqotda ham aynan shunday yozadilar

Ba’zi tilshunoslarning ta’kidlashicha, hozirgi vaqtida ommaviy axborot vositalari to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki yanada nozik - bilvosita ta’sir bilan tavsiflanadi⁶. Shiorlar, murojaatlar, birma-bir aytilgan gaplar o‘rniga konstruksiylar keng qo‘llaniladi, ularning yashirin mazmuni ularning yuzaki semantik tuzilishida keltirilgan ma’noga qaraganda muhimroq bo‘ladi. Quyidagi misolni ko‘rib chiqaylik:

- o‘zini o‘zi stilizatsiya qilish (muallif “uning” imidjini yaratishga intiladi, masalan, jargonga xos tilda so‘zlashadigan odamning qiyofasi);
- bayon qilingan voqeada ishtirokchilarining nutq uslubini stilizatsiya qilish;
- potensial o‘quvchining odatini stilizatsiya qilish.

Zamonaviy madaniy vaziyatda ommaviy axborot vositalari va ma’lumotlar, shu jumladan gazeta va jurnallar sohasi G‘arbiy Yevropa an‘analarining muayyan namunalari va xususiyatlari moslashish va qayta yo‘naltirish jarayonini boshdan kechirmoqdalar. O‘z navbatida, g‘arbiy gazeta va jurnallar sohasi, aniq ifoda etilgan ixtisoslik, matnlarni yaratish tezligi, haddan tashqari keskinlik va axborot oqimining zichligi bilan ajralib turadi. Bu yerda siyqasi chiqqan leksik birliklar aniq baholash qo‘shimchalari bilan muhim rol o‘ynaydi. Gazeta va jurnallarning ommaviy madaniyat sohasi katta metaforizatsiya, qabul qiluvchining dastlabki bilimlariga yo‘naltirilganlik, yangilikka munosabat va uzatilayotgan ma’lumotni darhol anglash bilan tavsiflanishi mumkin.

⁵ Internet manbalaridan iqtibos olindi

⁶ Какорина Е.В. Язык средств массовой коммуникации // Русский язык. – М., 1999. № 46

Og‘zaki fikrlash turining o‘zgarishi, o‘z navbatida, zamonaviy ijtimoiy makonda ma’lumotlarning uzatish tezligi va miqdorining o‘zgarishi va shunga mos ravishda ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi bilan bevosita bog‘liq deb taxmin qilish mumkin. "Radio, televideniya, gazeta va jurnallar", deb yozadi A.V. Kukarin, "kuchayib borganda, ular bizning ongimizga butun kodlangan ma’lumot dengizini olib keladi va tasvirlar bilan to‘yingan ko‘proq ma’lumotni tezlashtirishga harakat qilmoqda"⁷. Shunday qilib, jurnalistlar, radio va televideniya xodimlari, reklama beruvchilar, san’atkorlar va boshqalar ataylab har bir eshittiruv soniyasining har bir satrida maksimal ma’lumot va hissiy yukni yetkazishga bor kuchlarini sarflaydilar.

XULOSA

Bir so‘z bilan aytganda OAVda til uslubi va nutq madaniyati ma’lum qolipda va madaniy normalar doirasida bo‘lishi lozim. Amerikalik futurolog E.Toffler tarifiga ko‘ra-”Uchinchi to‘lqin” asarida bu haqda shunday yozadi: Fabrika millionlab xonadonlarda foydalanish uchun bitta buyumni kerakli miqdorda yasab tashlagani kabi ommaviy axborot vositalari ham millionlab odamlarning miyasi uchun bir qolipdagi axborotlarni keragicha chiqarib boraveradi. Bir andozaga solingan, ommaviy tarzda tayyorlangan dalillar qoliplashgan, ommaviy tarzda tayyorlangan mahsulotlarning egizagidir. Albatta ushbu tarifga mos ommaviy axborotning nutq madaniyatini shakllantirish masalasi dolzarbligini hanuz yo‘qtgani yo‘q.

ADABIYOTLAR

1. Sh. Shaxabitdinova, D. Rustamov, D. Popov, D. Rustamova, B. Abdullayev, Sh. Miralimova “Ommaviy lisoniy madaniyat [Jamoaviy monografiya]. Andijon –2020 5-б
2. Urinbayev B. Vopros sintaksisa uzbekskoy razgovornoy rechi. Avtoref. diss... d-ra filol.nauk. – T., 1974.; O‘rinbayev B. O‘zbek so‘zlashuv nutqi sintaksisi masalalari. –T.: Fan, 1974.
3. Karimov S. O‘zbek tili funksioial stilistikasi. Monografiya. – Samarqand: SamDU, 2010. – B. 32
4. Какорина Е.В. Узык средств массовой коммуникативы // Русский язык. – М., 1999. № 46
5. Zyonet.ru
6. Cyberleninka.ru
7. Arxiv.uz
8. <https://hcommons.org>

⁷ Кукарин А.В. Буржуазнауа массовауа култура: Теории. Идеи. Разновидности. Образцы. Техника. Бизнес. – М.: Политиздат, 1985. – С.104.